“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

SUYUNOV SHAXZOD G‘ULOM O‘G‘LI

GIDROTEXNIKA INSHOOTLARINI LOYIHALASH JARAYONIDA SIFAT KO‘RSATKICHLARI NAZORATINI AVTOMATLASHTIRILGAN ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH

05.01.01-“Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va videotexnologiyalar”

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK:515.1

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

Suyunov Shaxzod G‘ulom o‘g‘li

Gidrotexnika inshootlari loyihalash jarayonida sifat ko‘rsatkichlari nazoratini avtomatlashtirilgan algoritmlarini ishlab chiqish…… 3

Суюнов Шахзод Гулом угли

Разработка автоматизированных алгоритмов контроля показателей качества в процессе проектирования гидротехнических сооружений.. 23

Suyunov Shakhzod

Development of automated olgorithms for controlling quality indicators in the process of designing hydraulic ingineering structures…… 46

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works…… 54

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

SUYUNOV SHAXZOD G‘ULOM O‘G‘LI

GIDROTEXNIKA INSHOOTLARINI LOYIHALASH JARAYONIDA SIFAT KO‘RSATKICHLARI NAZORATINI AVTOMATLASHTIRILGAN ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH

05.01.01-“Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va videotexnologiyalar”

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5281 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.tiiame.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:	**Kuchkarova Dilarom Fayzullayevna** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Nuraliyev Faxriddin Murodillayevich** texnika fanlari doktori, professor
	Qahhorov Uktam Abduraximovich texnika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent Davlat Texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.10.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 20___ yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahari Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy. Tel: (+99871) 237-22-09, faks: (+99871) 237-54-79, e-mail: admin@tiiame.uz)

Dissertatsiya bilan “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahar, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy. Tel: (+99871) 237-19-45.

Dissetatsiya avtoreferati 2026-yil _____ kuni tarqatildi

(20___ yil «_____»_____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

M.X.Xamidov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

F.A.Gapparov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi t.f.d., professor

M.R.Bakiyev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda gidrotexnika inshootlarini loyihalash, qurish jarayonlarini nazorat qilish, baholash va loyiha sifatini yaxshilash hamda ulardan foydalanishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda jumladan, AQSh, Xitoy, Fransiya, Germaniya, Rossiya va boshqa davlatlarda muhandislar va sun’iy intellekt tomonidan bajarilgan gidrotexnika inshootlarining loyihalari qanchalik sifatli va qanchalik yaroqli ekanligi muhim hisoblanmoqda. Bu borada, jumladan loyihalash jarayonlarini nazorat qilish, kvalimetriya, loyihani baholash usullari va qaror qabul qilish nazariyasini qo‘llash, optimal konstruksiyalarini ishlab chiqish va modellashtirish asosida loyiha samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda gidrotexnika inshootlari loyihalash jarayoni sifatini sezilarli darajada yaxshilash, xususan kvalimetriya, loyihani baholash usullari va qaror qabul qilish nazariyasini zamonaviy texnologiyalariga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan,. loyihalash tashkilotlarida loyiha hujjatlarini tuzib chiqish jarayonini avtomatlashtirish, har bir sohani sezilarli darajada raqamlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, gidrotexnika inshootlari loyihalash jarayoniga kvalimetriya, loyihani baholash usullari va qaror qabul qilish nazariyasi qoidalari asosida loyihalarni avtomatlashtirilgan dastur yordamida baholashning algoritmlari va dasturiy ta’minoti yaratish, zamonaviy texnologiyalar samaradorligini aniqlash usuli dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda gidrotexnika inshootlarini loyihalashda zamonaviy innovatsion usullardan keng foydalanish va samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish va ularni amalda qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida suv resurslarini boshqarish, suvdan tejamkor foydalanish va gidrotexnik inshootlar xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan istiqbolli loyihalarni amalga oshirish vazifalari belgilangan.[1] Ushbu vazifani amalga oshirish, jumladan modernizatsiyalash talablarini hisobga olgan holda gidrotexnika inshootlari loyihalash jarayoniga sifat ko‘rsatkichlarini kiritish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim hisoblanadi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PF–6024 sonli “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi, 2025 yil 15 avgustdagi PF–250 “O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025–2028 yillarga mo‘ljallangan dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi farmonlari, shuningdek 2019 yil 9 oktabrdagi PQ–4486-son “Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmon.

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqtotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Gidrotexnika inshootlarini loyihalashda kvalimetriya, loyihani baholash usullari va qaror qabul qilish nazariyasini qo‘llash algoritmlarini ishlab chiqish muammolari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Jarayonlarni avtomatlashtirish va loyihalash jarayoniga kvalimetriya, loyihani baholash usullari va qaror qabul qilish nazariyasini qo‘llash bo‘yicha o‘rganilgan xorijiy olimlar: Shmulevich. R. G., Aleksandrovich P. I., Borisovich I. Sh., Xalitovich A. B., Eriksson M., Kobeleva. N.N., V. V. Nogin., B.S. Chen., Douglas C., Joseph M., Juran., A. Blanton., T Pyzdek., A. Keller., J Kleinberg., E Tardos., P. Novak., A.I. Moffat., C. Nalluri., R. Narayman., P. R. Kothamali., V. K. Karne., S. Surya., M. Dandyala., Frederick S., Hillier., Gerald J. va boshqa olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda gidrotexnika inshootlarini loyihalash jarayoni ustida D.F. Kuchkarova, M.R. Bakiyev, N. Raxmatov, A.I. Azimov, R.R. Ergashev, B.B. Hasanov, A.R. Muratov, F.Sh. Shaazizov, A.B. Xalimbetov, K.T. Yakubov, D.S. Adjimuratov, B.S. Ismatovlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Professor D.F. Kuchkarova topografik sirtlar nazariyasini rivojlantirishga hissa qo‘shgan.

Mazkur sohadagi tadqiqotlarning o‘rganilganligi shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda loyihalash jarayoniga kvalimetriya, loyihani baholash usullari va qaror qabul qilish nazariyasini qo‘llash va loyihani oldindan bashorat qilish usullaridan keng foydalaniladi. Biroq loyihalash jarayonida loyihaning bitta varianti bilan chegaralanib qolmasdan bir nechta loyiha variantlarini tuzib chiqish va ular orasidan eng maqbul loyiha variantini tanlash, loyihalash jarayoniga kvalimetriya, loyihani baholash usullari va qaror qabul qilish nazariyasini qo‘llash orqali loyihalash jarayonini avtomatlashtirish muammolari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlarining rejasi 2025-yil 6-fevralidagi №2,1 bandi “Gidrotexnika inshootlari konstruksiyalarini, hisoblash va loyihalash usullarini takomillashtirish hamda ishonchli va xavfsiz foydalanish asoslarini raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqish” (2023-2026) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy loyihalash tizimlarida gidrotexnika inshootlarini loyihasini tayyorlash jarayonida sifat ko‘rsatkichlari nazoratini avtomatlashtirilgan algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

gidrotexnika inshootlariga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni tahlil qilish va aniqlash;

gidrotexnika inshootlari loyihalarini baholash jarayonida qo‘llaniladigan usullarni tahlil qilish va bu usullarni bir biri bilan taqqoslash;

gidrotexnika inshootlari loyihalarini baholashda grafik dasturlar o‘rni va loyihalarni baholashda grafik dasturlarda vizualizatsiya usulini takomillashtirish.

grafoanalitik usullarni ishlatgan holda gidrotexnika inshootlari loyihalari va faoliyatini baholash va bashorat qilish usullarini takomillashtirish;

tavsiya qilingan uslubiyotni kompyuter dasturlash tillar orqali amalga oshirib ishlab chiqarishda va o‘quv jarayoniga tadbiq qilish va samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida gidrotexnika inshootlarini loyihalash jarayonida loyihani baholash va optimal loyihalarni shakllantirish olingan.

Tadqiqotning predmetini gidrotexnika inshootlari loyihasini tuzishda qo‘llaniladigan qaror qabul qilish, kvalimetriya, baholash va bashorat qilish usullar, algoritmlari va dasturiy majmuasini qo‘llash jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tahlilning zamonaviy kvalimetriya, matematik modellashtirish va qaror qabul qilish nazariyasi usullari, loyihalash jarayonini modellashtirish usullarini qo‘llashda raqamli ishlov berish nazariyasi, olingan natijalar qiyosiy tahlillash va dasturlash texnologiyalari, optimallashtirish va bashorat qilish nazariyasidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

gidrotexnika inshootlariga ta’sir qiluvchi asosiy omillar aniqlangan va bu omillarni o‘zaro bir-biriga ta’siri asoslangan;

gidrotexnika inshootlari loyihalarini baholash usullaridan Delphi va Pareto optimal usullarini taqqoslash metodikasi ishlab chiqilgan;

gidrotexnika inshootlari loyihalash normalari asosida SolidWORKS dasturida to‘g‘on 3D modeli yasalgan va suv omborida yig‘ilgan suv bosim kuchi to‘g‘onga taqsimlanish jarayoni vizualizatsiyasi usuli takomillashtirilgan;

gidrotexnika inshootlarida yillik suv hajmi ko‘rsatkichlari tahlili asosida AutoCAD va Exsel dasturlarida regressiya formulalari yordamida suv hajmini bashoratlash usuli ishlab chiqilgan;

gidrotexnika inshootlari loyihalash jarayonida kvalimetriya, loyihani baholash usullari va qaror qabul qilish nazariyasi qoidalari asosida loyihalarni avtomatlashtirilgan dastur yordamida baholashning algoritmlari va dasturiy ta’minoti yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gidrotexnika inshootlarini loyihalash jarayoniga sifat ko‘rsatkichlarini avtomatlashtirilgan algoritmlarini qo‘llash orqali qurilishi mo‘ljallangan loyihalarning sifatini tubdan o‘zgartirish imkoniyatlari yaratilgan;

gidrotexnika inshootlari loyihalarini bashorat qilishda grafik vizualizatsiya va regressiya usullarining modifikatsiya qilingan ko‘rinishi ishlab chiqilgan;

loyihalarni baholash, grafik vizualizatsiya va regressiya usullarini amaliyotga tadbiq qilish natijasida loyihalarni oldindan tanlash va baxtsiz hodisalarni oldini olish imkoniyatlari yaratilgan;

gidrotexnika inshootlarini baholashda kvalimetriya, loyihani baholash usullari va qaror qabul qilish nazariyasi algoritmlari asosida dasturiy ta’minot ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy matematik statistik tahlil usullari, analitik geometriya, optimizatsiya usullari, qaror qabul qilish nazariyasi, kvalimetriya usullari, loyihani baholash usullari, bashorat qilish nazariyasi orqali va kompyuter dasturlash vositasi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gidrotexnika inshootlari loyihalarini baholash usullaridan Delphi va Pareto optimal usullarini taqqoslash metodikasi ishlab chiqilganligi, suv omborida yig‘ilgan suv bosim kuchining to‘g‘onga taqsimlanish jarayoni vizualizatsiyasi usuli takomillashtirilganligi, gidrotexnika inshootlarida yillik suv hajmi ko‘rsatkichlari tahlili asosida AutoCAD va Exsel dasturlarida regressiya formulalari yordamida suv hajmini bashoratlash usuli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati gidrotexnika inshootlarini loyihalash normalari asosida SolidWORKS dasturida to‘g‘onning 3D modeli yaratilganligi, loyihalash jarayoniga sifat ko‘rsatkichlarini avtomatlashtirilgan algoritmi yaratilganligi, gidrotexnika inshootlari loyihasini baholashda kvalimetriya va qaror qabul qilish nazariyasi algoritmlari asosida dasturiy ta’minot ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya doirasida gidrotexnika inshootlarini loyihalashda qaror qabul qilish nazariyasi, kompyuter grafikasi, kvalimetriya usullari, loyihani baholash usullari va qaror qabul qilish nazariyasini qo‘llash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Delphi va Pareto optimal usullari orqali tuzilgan bir nechta loyihalarda eng maqbulini inshootga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarga asosan tanlab olish algoritmlari va tavsiyalar “Navoiy suvloyiha” MCHJ va “Quyi Zarafshon Irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi” da amaliyotga tadbiq qilingan (Suv xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 12-yanvardagi 04/20-122-son ma’lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan algoritmlar gidrotexnika inshootlarining loyihasini baholash jarayonini avtomatlashtirilgan holda loyihani baholovchi ekspertlarning ish vaqtini sezilarli darajada kamaytirishga, mehnat unumdorligini esa 6-8% ga oshirish imkoniyatini yaratgan;

Tadqiqot ishining natijalari asosida “Topographic in drawing hydrotechnics” nomli o‘quv qo‘llanma chop etildi va“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetida o‘quv jarayoniga tadbiq etildi (“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining o‘z grifi asosida o‘quv adabiyotlarni nashr etish bo‘yicha 2024-yil 17-dekabrdagi 371 a/f-sonli buyrug‘iga muvofiq). Natijada, talabalarning ta’lim jarayonini zamonaviy

vositalar yordamida samarali tashkil etish, nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirish hamda kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish imkoniyati kengaygan;

Gidrotexnika inshootlari loyihalash jarayonida sifat ko‘rsatkichlari nazoratini avtomatlashtirilgan algoritmlari “Gidroproekt AJ” da amaliyotga tadbiq qilingan (Suv xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 12-yanvardagi 04/20-122-son ma’lumotnomasi). Natijada, tavsiya qilingan gidrotexnika inshootlari loyihalarini tuzish jarayonida kvalimetriya, loyihani baholash usullari va qaror qabul qilish nazariyasidan foydalanish orqali an’anaviy baholash usulidan ish samaradorligini 20% oshirishga erishildi.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha jami 32 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan 1 ta tavsiyanoma, 1 ta dasturiy ta’minot guvohnomasi O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun asosiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta ilmiy maqola, jumladan 8 tasi respublikada va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil qilgan

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari obyekt va predmetlari keltirilgan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Gidrotexnika inshootlarini loyihalarini tuzishda kvalimetrik usullarni qo‘llash tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida kvalimetriya, loyihani baholash usullari va qaror qabul qilish nazariyasini turli sohalarda qo‘llash bo‘yicha adabiyotlar tahlili qilingan. Shu jumladan gidrotexnika inshootlari loyihalarini baholashning maxsus usullari tanlangan. Gidrotexnika inshootlari loyihalari sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lum bir loyihaning bir nechta varianti tuzilib ushbu loyihalar Pareto optimal usulida baholandi va eng maqbul loyihani tanlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.Gidrotexnika inshootlari loyihalarini baholash bo‘yicha tanlangan Delphi va Pareto optimal usullari bir-biri bilan taqqoslandi. Loyihani baholash usullari qaysi holatda qanday samara berishi to‘g‘risida amaliy tavsiyalar berildi.

Bizga ma’lumki gidrotexnika inshootlarga ta’sir qiluvchi omillar shunchalik ko‘pki ularning barchasini hisobga olganda loyihalarni baholash imkonsizdir.

Shuning uchun gidrotexnika inshootlariga sezilarli ta’sir qiluvchi omillar tanlanib taklif qilingan usullar bo‘yicha baholash tavsiya qilingan (1-rasm).

Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki har bir jarayonni baholash algoritmi mavjud bo‘lib shu algoritmlar asosida gidrotexnika inshootlari loyihalarini baholash algoritmi ishlab chiqildi (2-rasm).



1-rasm. Gidrotexnika inshootlariga ta’sir qiluvchi omillar.




2-rasm. Gidrotexnika inshootlari loyihalarini baholash algoritmi.


Ushbu algoritm asosida tanlab olingan usullar yordamida gidrotexnika inshootlar loyihalari baholanadi va maqbul loyiha tanlanadi. Birinchi usul Delphi usuli ushbu usul o‘tgan asrning birinchi yarmida AQSH tadqiqotchilari tomonida ishlab chiqilgan bo‘lib jarayonlarni baholash va bashorat qilishda foydalanilgan. Ikkinchi usul Pareto optimal usuli bo‘lib bu usul muqobil variantlardan birini tanlashda matematik yondashuv asosida yuqori aniqlik bilan ishlaydi. Ushbu usullar yordamida gidrotexnika inshootlari loyiha varinatlaridan biri tanlandi tadqiqot ishida ikki usulni bir biri bilan taqqoslash ko‘rsatilgan.

Delphi usuli natijaning aniqligiga inson omili tufayli farq qilishi mumkin, shuning uchun u noaniqlik va subyektivlikka ega


Pareto optimal usuli esa matematik yondashuv asosida yuqori aniqlikni ta’minlaydi lekin uni qo‘llash murakkabroq bo‘lishi mumkin.




3-rasm. 1-loyiha qo‘yma temir-beton materialdan.



4-rasm. 2-loyiha yig‘ma temir-beton materialdan.



5-rasm. 3-loyiha qo‘yma beton-plenkali.



6-rasm. 4-loyiha yig‘ma beton-plenkali.

Gidrotexnika inshootlarini loyihalash jarayoniga qo‘yilgan asosiy sifat ko‘rsatkichlari 1-jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

1-jadval.

Asosiy sifat ko‘rsatkichlar

№	Sifat ko‘rsatkichlari	1-loyiha	2-loyiha	3-loyiha	4-loyiha
1	Loyihaning narxi,	100 000 (shartli birlik)	120 000 (shartli birlik)	140 000 (shartli birlik)	160 000 (shartli birlik)
2	Mustahkamligi va xavfsizligi,	20-25 yil	30-35 yil	20-25 yil	35-40 yil
3	Qurilish normalari,	80%	80,1%	80,2%	80,1%
4	Tashqi ta’sirlarga chidamliligi,	40-50 %	60-70 %	40-50%	70-80%
5	Qurilish materiallari	80 %	80 %	50 %	50 %

Bu sifat ko‘rsatkichlari gidrotexnika inshootlari loyihasiga qo‘yilgan barcha sifat ko‘rsatkichlari emas, chunki bu sifat ko‘rsatkichlarini yana davom ettirishimiz mumkin.

2-jadval.

Ekspertlar bahosi

Ekspertlar	I loyiha	II loyiha	III loyiha	IV loyiha
1-ekspert	85%	87%	83%	80%
2-ekspert	82%	85%	81%	78%
3-ekspert	70%	75%	76%	78%
4-ekspert	72%	73%	74%	76%
5-ekspert	95%	92%	90%	88%
6-ekspert	93%	90%	88%	86%
7-ekspert	80%	82%	80%	82%
8-ekspert	81%	80%	81%	80%
9-ekspert	78%	85%	78%	90%
10-ekspert	80%	87%	80%	91%
O’rta qiymat	81,6%	83,6%	81,1%	82,9%

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ikkinchi loyiha boshqa loyihalarga nisbatan ekspertlar bahosiga asosan tanlanishi mumkin.

Keyingi bosqichdan berilgan loyiharni Pareto optimal usuli bo‘yicha taqqoslashtiramiz. Pareto optimal formulasiga asosan ikkita loyiha ya’ni eng loyiq loyiha va eng noloyiq loyihalar shakllantiriladi. Birinchi eng loyiq loyiha [100 000 (shartli birlik), 35-40 yil, 80,2%, 70-80%, 80%]. Eng noloyiq loyiha [160 000 (shartli birlik), 20-25 yil, 80%, 40-50%, 50%].

Pareto optimal usulining shartiga binoan 3-jadval tuziladi.

k_1 – Loyihaning narxi

k_2 – mustahkamligi va xavfsizligi

k_3 – qurilish normalari

k_4 – tashqi ta’sirlarga chidamliligi

k_5 – qurilish materiallari

3-jadval.

Sifat ko‘rsatkichlarining loyihalar bo‘yicha farqi

Obyektlar	k_1	k_2	k_3	k_4	k_5
1-loyiha	1	1	0,8	0,4	0,8
2-loyiha	1,2	1,5	0,801	0,6	0,8
3-loyiha	1,4	1	0,802	0,4	0,5
4-loyiha	1,6	1.75	0,801	0,7	0,5
Loyiq loyiha	$k_1^+ = 1$	$k_2^+ = 1{,}75$	$k_3^+ = 0{,}9$	$k_4^+ = 0{,}7$	$k_5^+ = 0{,}8$
Noloyiq loyiha	$k_1^- = 1{,}6$	$k_2^- = 1$	$k_3^- = 0{,}8$	$k_4^- = 0{,}4$	$k_5^- = 0{,}5$

Har bir loyihani eng loyiq va noloyiq orasidagi masofasini aniqlaymiz.

$$d_j^i = \frac{k_j^+ + k_j^i}{k_j^+ - k_j^-}. \quad (1)$$

4-jadvalda har bir loyihani eng loyiq va noloyiq loyihalar orasidagi masofa ko‘rsatiladi.

4-jadval.

Loyiq va noloyiq loyihalar orasidagi masofa

Obyektlar	d_1	d_2	d_3	d_4	d_5
1-loyiha	−3.33	3.66	801	3.66	5.33
2-loyiha	-3.66	4.33	801,5	4.33	5.33
3-loyiha	-4	3.66	802	3.66	4.33
4-loyiha	-4.33	4.66	801,5	4.66	4.33

Loyihalar tartibga solinib bir-biri bilan taqqoslanadi

$d_1 \rightarrow$ 1-loyiha > 2-loyiha > 3-loyiha > 4-loyiha

$d_2 \rightarrow$ 4-loyiha > 2-loyiha > 1-loyiha = 3-loyiha

$d_3 \rightarrow$ 3-loyiha > 2-loyiha = 4-loyiha > 1-loyiha

$d_4 \rightarrow$ 4-loyiha > 2-loyiha > 1-loyiha = 3-loyiha

$d_5 \rightarrow$ 1-loyiha = 2-loyiha > 3-loyiha = 4-loyiha

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki ikkinchi loyiha boshqa loyihalarga nisbatan doimiy yaxshi o‘rinlarga ega bo‘lgani uchun tanlangani maqsadga muvofiqdir


Tadqiqotlar shuni ko‘rsatayaptiki bir nechta operativ variantlardan maqbulini tanlash uchun Delphi usuli va Pareto optimal usullarini qo‘llash amaliy masalalar yechishda yaxshi natijalarni ko‘rsatmoqda. Agar mezonlar ko‘p miqdorda bo‘lsa Delphi usuli yaxshi natija ko‘rsatmoqda. Mezonlar miqdori 5 tadan kam bo‘lsa Pareto optimal usuli yaxshi natija beradi

Dissertatsiyaning **“Gidrotexnika inshootlari loyihalarini sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar”** deb nomlangan ikkinchi bobida gidrotexnika inshootlariga ta’sir qiluvchi asosiy sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash va ularning ekspluatatsiya jarayonida inshootga qanday ta’sir qilishini tahlil qilishga qaratilgan. Ilm-fan va texnika sezilarli darajada rivojlanib kundalik hayotimiz va ishlab chiqarish yanada osonlashib bormoqda. Lekin hozirgi vaqtda faqat ma’lum bi vazifani bajaruvchi texnika yoki dasturlarni yaratish yetarli emas. Balki bu texnika va dasturlarni kelajakda qanchalik samarali ekanligini bashorat qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bunga yaqqol misol qilib “Gidrometeomarkaz” tomonidan qilinadigan ob-havo bashoratini ko‘rsatishimiz mumkin. Ob-havo bashoratidan kelib chiqib tibbiy, texnik va iqtisodiy tayyorgarliklar ko‘rish kundalik hayotimizda qanchadan-qancha iqtisodiy yo‘qotishlarni oldini olish va ob-havo ta’sirida kelib chiqadigan kasalliklar ko‘payishiga tibbiy tayyorgarlik ko‘rish mumkin.

Gidrotexnika inshootlarini bashorat qilish algoritmini ishlab chiqish va avtomatlashtirish orqali yillik suv hajmini aniqlash va shunga ko‘ra dehqonchilik maydonlariga suv taqsimlash, taqsimlanadigan suv hajmiga ko‘ra dehqonchilik

maydonlarida yetishtiriladigan mahsulotlar turini va navini tanlash davlatimiz uchun juda katta iqtisodiy foyda keltirishi mumkin. Olib borilgan izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki gidrotexnika inshootlarini bashorat qilishda eng samarali usul “Regressiya” va kompyuter grafik dasturlarida qilinadigan vizualizatsiya usullaridir.

SolidWORKS dasturida to‘g‘on loyihasini suv bosimiga chidamliligini hisoblash eksperimenti bajarildi. Buning uchun misol tariqasida suv ombori loyihasi bir necha vairantlarda tuzildi va suv omborida yig‘ilgan suvning bosim kuchi to‘g‘onga qanday ta’sir qilishi variantlar uchun alohida eksperiment qilindi (7-rasm).




7-rasm. To‘g‘onning ko‘ndalang kesimi.

Gidrotexnika inshootlari qurilishida foydalaniladigan materiallar ham standartlashtirilgan bo‘lib ular quyida O‘zDSt 779.2023 standartida keltirilgan.

Ushbu ma’lumotlardan foydalangan holda to‘g‘on loyihasining gidravlik hisobi ishlab chiqildi va suv omborida yig‘ilgan suvning bosim kuchi to‘g‘onga qanday ta’sir qilishi formulasi tuzildi.


Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar bo‘yicha o‘rganishlar olib borildi va gidrotexnika inshootlari uchun qo‘llaniladigan beton markalari aniqlandi. Suv omboriga yig‘ilgan suv to‘g‘onga qanday ta’sir qilishi hisoblandi. SolidWorks dasturida loyihalash normalariga muvofiq to‘g‘on 3D modeli yasaldi va yigi‘lgan suvning bosimiga chidamliligi hisoblab chiqildi (8-rasm).




8-rasm. Birinchi holat.

Suv omborida yig‘ilgan suv bosimining yo‘nalishi quyidagi rasmda keltirilgan (9-rasm). SolidWORKS dasturida gruntdan qurilgan va ust qoplamasi betondan tayyorlangan to‘g‘on modeliga yig‘ilgan suv bosimi ta’sir qilganda o‘zgarishi

mumkin bo‘lgan ko‘rinishi va maksimal bardosh bera oladigan bosim kuchi ko‘rsatilgan (10-rasm).




9-rasm. Tajriba uchun tayyorlangan to‘g‘onning 3D modeli.




10-rasm. Suv bosiminig yo‘nalishi va to‘g‘onni yer sirtiga berkitish.

To‘g‘onga yig‘ilgan suv va to‘g‘on shakliga ko‘ra to‘g‘onning barcha qismiga bosim bir xilda ta’sir qilmaydi. To‘g‘onning qaysi qismiga suv bosimi kuchli ta’sir qiladi va shakl o‘zgarish deformatsiyasini ham ko‘rish mumkin (11-rasm). To‘g‘onga yig‘ilgan suvning umumiy bosim kuchi to‘g‘onni umumiy joyidan surishga harakat qiladi bunda SolidWORKS dasturining to‘g‘onni yer sirtiga biriktirilgan qismiga qanchalik zo‘riqish hosil bo‘lishini ham hisoblash mumkin (12-rasm).




11-rasm. To‘g‘onga bosim ta’sir qilgandagi holati.



12-rasm. O‘zgarish yuqori bo‘lgan qismlar.


Suv omborida yig‘ilgan suv bosim kuchi to‘g‘onni joyidan surishga harakat qiladi, shunda to‘g‘onnning tayanch qismida zo‘riqish hosil bo‘ladi (13-rasm).



13-rasm. Yig‘ilgan suv to‘g‘onni joyidan surganda zo‘riqish hosil bo‘ladigan qismi.


Xuddi shu tartibda ikkichi loyiha test qilindi. SolidWORKS dasturida gruntdan qurilgan va ust qoplamasi betondan tayyorlangan to‘g‘on modeliga

yig‘ilgan suv bosimi ta’sir qilganda o‘zgarishi mumkin bo‘lgan ko‘rinishi va maksimal bardosh bera oladigan bosim kuchi ko’rsatilgan (14-rasm).




14-rasm. Arkasimon to‘g‘on loyihasining 3D modeli.

To‘g‘onga yig‘ilgan suv va to‘g‘on shakliga ko‘ra to‘g‘onning barcha qismiga bosim bir xilda ta’sir qilmaydi. To‘g‘onning qaysi qismiga suv bosimi kuchli ta’sir qiladi va shakl o‘zgarish deformatsiyasini ham ko‘rish mumkin (15-rasm). To‘g‘onga yig‘ilgan suvning umumiy bosim kuchi to‘g‘onni umumiy joyidan surishga harakat qiladi bunda SolidWORKS dasturining to‘g‘onni yer sirtiga biriktirilgan qismiga qanchalik zo‘riqish hosil bo‘lishini ham hisoblash mumkin (16-rasm).




15-rasm. Arkasimon to‘g‘onga yig‘ilgan suv bosim kuchi ta’sirida o‘zgarishi mumkin bo‘lgan holat.




16-rasm. To‘g‘onning qaysi qismida suv bosim kuchi kuchli va shakl o‘zgarish yuqori bo‘lgan qism.

Keyingi bosqichda shu tartibda uchinchi loyiha test qilindi. SolidWORKS dasturida gruntdan qurilgan va ust qoplamasi betondan tayyorlangan to‘g‘on modeliga yig‘ilgan suv bosimi ta’sir qilganda o‘zgarishi mumkin bo‘lgan ko‘rinishi va maksimal bardosh bera oladigan bosim kuchi ko’rsatilgan (17-rasm).




17-rasm. Uchburchaksimon to‘g‘onning 3Ds MAX dasturida qilingan ko‘rinishi.

To‘g‘onga yig‘ilgan suv va to‘g‘on shakliga ko‘ra to‘g‘onning barcha qismiga bosim bir xilda ta’sir qilmaydi. To‘g‘onning qaysi qismiga suv bosimi kuchli ta’sir qiladi va shakl o‘zgarish deformatsiyasini ham ko‘rish mumkin (18-rasm). To‘g‘onga yig‘ilgan suvning umumiy bosim kuchi to‘g‘onni umumiy joyidan surishga harakat qiladi bunda SolidWORKS dasturining to‘g‘onni yer sirtiga biriktirilgan qismiga qanchalik zo‘riqish hosil bo‘lishini ham hisoblash mumkin (19-rasm).




18-rasm. Uchburchaksimon to‘g‘onga yig‘ilgan suv bosim kuchi ta’sirida o‘zgarishi mumkin bo‘lgan holat.



19-rasm. To‘g‘onning qaysi qismida suv bosim kuchi kuchli va shakl o‘zgarish yuqori bo‘lgan qism.

Jarayonlarni bashorat qilishda Regressiya usuli keng qo‘llaniladigan usullardan biridir ushbu usulni gidrotexnika inshootlarni bashorat qilishda qo‘llashda maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Amu daryo” daryosini 1989-2022-yillardagi suv hajmining statistik ma’lumotlariga ko‘ra kelasi yillardagi suv hajmi bashorat qilindi.

“Amu daryo” daryosining 1989-2022-yillardagi suv hajmi statistik ma’lumotlarga asoslangan holda keyingi yillarda “Amu daryo” daryosidagi suv hajmi bashorat qilinadi. Buning uchun statistik ma’lumotlar Dekart koordinatalar sistemasiga joylashtiriladi bunda Ox o‘qi bo‘ylab yillar hamda Oy o‘qi bo‘ylab suv hajmi joylashtiriladi. Keyingi bosqichda yillarga mos suv hajmi orqali nuqtalar olinadi va ushbu nuqtalarga mos regressiya chizig‘i o‘tkaziladi (20-rasm).



20-rasm. Yillik suv hajmi.

Iqtisodiy holatlarda ayrim o‘zgaruvchilarning ta’sirini tajriba sharoitida to‘liq nazorat qilish imkoniyati mavjud emas. Shu sababli, muayyan omilning natijaviy ko‘rsatkichiga ta’sirini xolis baholashda boshqa omillarning bir xil sharoitda saqlanishini ta’minlash murakkablashadi. Bunday vaziyatda natijaga ta’sir etuvchi qo‘shimcha omillarni ham model tarkibiga kiritish orqali ularning ta’sirini hisobga olish zarur. Mazkur maqsadga erishishda ko‘p omilli regressiya modelidan foydalanish eng maqbul usullarda biri hisoblanadi

$$y_i = \beta_0 + \beta_1 x_{i1} + \beta_2 x_{i2} + \ldots + \beta_k x_{ik} + \varepsilon_i \qquad (2)$$

Bu yerda ε_i nolga teng matematik kutilma va dispersiya σ^2 bo‘lgan o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan tasodifiy o‘zgaruvchilardir. Bunday tenglamani iste'molni o'rganishda qo'llash mumkin. U holda β_i koeffitsientlari mos keladigan x_i omillarga nisbatan y iste'molining qisman hosilalari: $\beta_1 = \frac{dy}{dx_1}, \beta_2 = \frac{dy}{dx_2}, \ldots, \beta_k = \frac{dy}{dx_k}$, boshqa barcha xi lar doimiy deb faraz qilingan.


Yuqorida keltirilgan regressiya grafiklari va formulasidan ko‘rinib turibdiki “Amu daryo” daryosining suv hajmi yildan yilga kamayib bormoqda. Bu o‘zgarish albatta iqlim o‘zgarishi, mahalliy hududlarda yetishtiriladigan paxta, bug‘doy, sholi va boshqa mahsulotlarning hosildorligiga ham ta’sir qilmasdan qolmaydi

Dissertatsiyaning “Tavsiya qilingan kavalimetriya usullarini amaliyotda qo‘llash” deb nomlangan uchinchi bobida gidrotexnika inshootlari loyihalash jarayonida sifat ko‘rsatkichlar nazoratini avtomatlashtirilgan algoritmlarini ishlab chiqishda tavsiya qilingan algoritmlar asosida tuzilgan dastur va loyihalarni baholashda qo‘llaniladigan an’anaviy usullar yoritib berilgan.

Gidrotexnika inshootlari va boshqa loyihalarni ekspertizadan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2021-yil 17-sentabr sanadagi 579-son bilan qabul qilingan “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish tartibotlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori bilan belgilab berilgan. Qarorga ko‘ra gidrotexnika inshootlarini ekspertizadan o‘tkazish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:


An’aviy usulga ko‘ra loyiha baholanish jarayonida 15 ta bosqichda o‘tadi, ushbu bosqichlar O‘zbekiston Respublikasivazirlar mahkamasining 17.09.2021 sanadagi 579-sonli “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish tartibotlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorida keltirilgan. Ushbu

jarayonda loyihalarni baholash o‘rtacha 30 ish kuni davomida baholanadi. Tadqiqot ishi natijasida tuzilgan dastur yordamida esa bu jarayon avtomatlashtirilgan va qisqa vaqt ichida natijani ko‘rish mumkin. Dasturning blok sxemasi 21-rasmda keltirilgan.



21-rasm. Dastur blok sxemasi.

Gidrotexnika inshootlari loyihalash jarayonida sifat ko‘rsatkichlari nazoratini avtomatlashtirilgan algoritmlarini ishlab chiqish natijasida tayyorlangan dasturiy ta’minot ko‘rinishi (22-rasm).



22-rasm. Dasturiy ta’minot ko‘rinishi.

Dastur gidrotexnika inshootlari loyihalarini baholash uchun foydalaniladi. Buning uchun “OpenAI API” platformasidan kalit olingan bo‘lib: sk-proj-dOIqf5axRG00GQ0mos1vjDYZ7y61sKvlrrJIYrtvXEUQ97IqDRfFWpo9Z3P42Bs

eHQrNRBGmCJT3BlbkFJCIAm0izESyhKb-sqJzXwplui-W2SjfAYlv2ptSTyZrGBrTPkLL4pTzvjxxNEbir8UGCt1kdIA, dastur ushbu kalit yordamida ishlaydi.


Dasturga hozirda gidrotexnika inshootlari loyihasining:

- Texnik-iqtisodiy asosi
- Geologik qidiruv ishlari natijalari
- Asosiy loyiha yechimlari
- Ishchi chizma


Ushbu natijalar kiritilganda dastur natijalarni tahlil qilib normalar bilan solishtiradi va normalarga qanchalik mos kelishini % da chiqaradi. Dastur loyihalarni faqat normalarga mosligini chiqaribgina qolmasdan qanday kamchiliklar borligini ham ko‘rsatadi.

Quyida Konimex tumanida joylashgan “Chorvador” xo‘jaliklararo kollektori tizimi loyihasi keltirilgan (23,24-rasm). Ushbu loyihani ishlab chiqilgan dastur yordamida baholab, normalarga qanchalik mos kelishi va qanday kamchiliklari mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.


Mazkur loyiha yechimi “Chorvador” xo‘jaliklararo kollektor tizimining o‘tkazuvchanligini tiklashga, meliorativ holatni yaxshilashga va transport vositalarining xavfsiz o‘tishini ta’minlashga xizmat qiladi. Qurilish texnologiyasi va materiallar tanlovi hududning geologik sharoiti hamda suv sarfi hisobiga mos keladi.



23-rasm. “Chorvador” xo‘jaliklararo kollektor tizimi loyihasi 3D modeli.



24.rasm. Loyiha plani.



25-rasm. loyiha natijalari.

25-rasmda Chorvador kanali uchun tayyorlangan bir nechta variantlarni avtomatlashtirilgan algoritmlar asosida tayyorlangan dastur yordamida baholandi.

XULOSA

Yuqoridagi natijalardan ma'lumki, gidrotexnika inshootlari loyihalarini baholash jarayoniga kvalimetriya, loyihani baholash usullari va qaror qabul qilish nazariyasini qo'llash algoritmlarini ishlab chiqish loyihani baholashning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan loyihalash jarayoni, tizimlarni avtomatlashtirish, kvalimetriya usullari, loyihani baholash usullari va qaror qabul qilish nazariyasini amaliyotga tadbiq qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari yuzasidan ilmiy va amaliy tadqiqotlar tahlili amalga oshirildi.

Respublikamizda gidrotexnika inshootlari loyihalari uchun sifat ko'rsatkichlari ishlab chiqildi va ushbu sifat ko'rsatkichlari bo'yicha Delphi usulida ma'lum bir loyihaning bir nechta variantidan birini tanlashda qo'llanildi.

Gidrotexnika inshootlari loyihalari sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lum bir loyihaning bir nechta varianti tuzilib ushbu loyihalar Pareto optimal usulida baholandi va eng maqbul loyihani tanlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Gidrotexnika inshootlari loyihalarini baholash bo'yicha tanlangan Delphi va Pareto optimal usullari bir-biri bilan taqqoslandi. Loyihani baholash usullari qaysi holatda qanday samara berishi to'g'risida amaliy tavsiyalar berildi.

Gidrotexnika inshootlarini loyihalash jaryonida bashorat qilish usullari yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlar tahlil qilindi va loyiha tuzish jarayonida gidrotexnika inshootini bashorat qilish algoritmlari ishlab chiqildi.

Gidrotexnika inshootlarini bashorat qilishda grafik dasturlar yordamida vizualizatsiya qilish usuli yordamida suv havzasida yig'ilgan suvning bosim kuchi

turli geometrik shakldagi to‘g‘onlarda sinab ko‘rildi va eng maqbul to‘g‘on turi tavsiya qilindi.

Hozirda foydalanib kelinayotga va qurilishi ko‘zda tutilgan gidrotexnika inshootlarini “regressiya” usuli yordamida bashorat qilish algoritmlari ishlab chiqildi va kerakli tavsiyalar berildi.

Ishlab chiqilgan algoritmlar asosida gidrotexnik inshootlarni bashorat qilish umuman olganda keyingi yillarga rejalashtirilgan vazifalarni takomillashtirishda juda katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot ishi yuzasidan umumiy xulosa sifatida gidrotexnika inshootlarini bashorat qilish loyihalarni oldindan tanlash imkoniyatini yaratibgina qolmasdan baxtsiz hodisalarni oldini oladi.

Gidrotexnika inashootlari loyihalarini baholash jarayonidagi algoritmlar “Visual Studio Code” muhitida “Python” dasturlash tili orqali avtomatlashtirilgan dastur ishlab chiqilgan.

РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ DSc.03/30.12.2019.T.10.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ “ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА”

НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ”ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА“

СУЮНОВ ШАХЗОД ҒУЛОМ ЎҒЛИ

РАЗРАБОТКА АВТОМАТИЗИРОВАННЫХ АЛГОРИТМОВ КОНТРОЛЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КАЧЕСТВА В ПРОЦЕССЕ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ГИДРОТЕХНИЧЕСКИХ СООРУЖЕНИЙ

05.01.01-“Инженерная геометрия и компьютерная графика. Аудио и видеотехнологии”

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент-2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/T5281

Диссертация выполнена в Национальном исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tiiame.uz) и на информационного-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Кучкарова Диларом Файзуллаевна** Доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Нуралиев Фахриддин Муродиллаевич** доктор технических наук, профессор
	Каххоров Уктам Абдурахимович доктор технических наук, доцент
Ведущая организация:	**Ташкентский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2026 г, в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.10.02 при Национальном исследовательском университете “Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства” (Адрес: 100000, г.Ташкент, улица Кары-Ниязий, дом 39. Тел.:(+99871) 237-22-09, факс: (+99871) 237-54-79, e-mail: admin@tiiame.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального исследовательского университета “Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства” (зарегистрирован за №____). Адрес: 100000, г.Ташкент, улица Кары Ниязий, дом 39. Тел.:(+99871) 237-19-45

Автореферат диссертации разослан«_____» _____ 20___ года.

(реестр протокола рассылки № ____ от «_____» _____ 20___ года.)

М.Х.Хамидов
Председатель Разового научного совета по присуждению учёных степеней, д.с.-х,н., профессор

Ф.А.Гаппаров
Ученый секретары Разового научного совета по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

М.Р.Бакиев
Председатель Разового научного семинара при Разовом научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется вопросам проектирования и строительства гидротехнических сооружений, контроля за процессами их строительства, оценки и повышения качества проектов, а также применения современных технологий при их эксплуатации. В настоящее время в развитых странах, в частности в США, Китае, Франции, Германии, России и других государствах, большое значение придается оценке качества и пригодности проектов гидротехнических сооружений, разработанных инженерами и с использованием технологий искусственного интеллекта. В этой связи особое внимание уделяется контролю процессов проектирования, применению методов квали́метрии, методов оценки проектов и теории принятия решений, а также повышению эффективности проектирования на основе разработки и моделирования оптимальных конструктивных решений.

В мире проводятся научные исследования, направленные на значительное повышение качества процесса проектирования гидротехнических сооружений, в частности на применение современных технологий квали́метрии, методов оценки проектов и теории принятия решений. В данном направлении приоритетное значение имеют исследования, направленные на автоматизацию процесса разработки проектной документации в проектных организациях, а также на значительную цифровизацию каждой отрасли. Вместе с тем актуальными задачами являются разработка алгоритмов и программного обеспечения для оценки проектов гидротехнических сооружений с использованием автоматизированных программных средств на основе принципов квали́метрии, методов оценки проектов и теории принятия решений, а также разработка методов определения эффективности применения современных технологий в процессе проектирования гидротехнических сооружений.

В нашей республике реализуется широкий комплекс мер по проведению исследований и их практическому применению в целях широкого использования современных инновационных методов при проектировании гидротехнических сооружений, а также создания новых технологий, способствующих повышению эффективности их проектирования. В Стратегии «Узбекистан — 2030» определены задачи по реализации перспективных проектов, направленных на управление водными ресурсами, рациональное использование воды и обеспечение безопасности гидротехнических сооружений[1]. Для реализации данных задач, в том числе с учетом требований модернизации, важное значение имеет проведение научных исследований по включению показателей качества в процесс проектирования гидротехнических сооружений.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, предусмотренных указами Президента Республики

[1] Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии “Узбекистан — 2030”».

Узбекистан от 10 июля 2020 года № УП–6024 «Об утверждении Концепции развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы» и от 15 августа 2025 года № УП–250 «Об утверждении Программы управления водными ресурсами и развития ирригационного сектора в Республике Узбекистан на 2025–2028 годы», постановлением Президента Республики Узбекистан от 9 октября 2019 года № ПП–4486 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы управления водными ресурсами», а также другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления IV «Развитие информатизации и информационно-коммуникационных технологий» развития науки и технологий Республики Узбекистан.

Степень изученности проблемы. Проблемы разработки алгоритмов применения квалиметрии, методов оценки проектов и теории принятия решений при проектировании гидротехнических сооружений достаточно широко освещены в научной литературе. Вопросы автоматизации процессов и применения квалиметрии, методов оценки проектов и теории принятия решений в процессе проектирования изучались зарубежными учёными: Шмулевич Р. Г., Александрович П. И., Борисович И. Ш., Халитович А. Б., Эрикссон М., Кобелева Н. Н., Ногин В. В., Чен Б. С., Дуглас К., Джозеф М., Джуран Дж., Блантон А., Пайздек Т., Келлер А., Кляйнберг Дж., Тардос Э., Новак П., Моффат А. И., Наллури С., Нарайман Р., Котхамали П. Р., Карне В. К., Сурья С., Дандиала М., Фредерик С., Хиллиер Ф., Джеральд Дж. и другими учёными.

В Республике Узбекистан исследования по процессу проектирования гидротехнических сооружений проводились такими учёными, как Д. Ф. Кучкарова, М. Р. Бакиев, Н. Рахматов, А. И. Азимов, Р. Р. Эргашев, Б. Б. Хасанов, А. Р. Муратов, Ф. Ш. Шаазизов, А. Б. Халимбетов, К. Т. Якубов, Д. С. Аджимурадов, Б. С. Исматов. В частности, профессор Д. Ф. Кучкарова внесла значительный вклад в развитие теории топографических поверхностей.

В результате анализа изученности исследований в данной области установлено, что в настоящее время в процессе проектирования широко применяются квалиметрия, методы оценки проектов и теория принятия решений, а также методы прогнозирования проектных решений. Однако в процессе проектирования недостаточно изучены вопросы разработки не одного, а нескольких вариантов проекта с последующим выбором наиболее оптимального решения, а также проблемы автоматизации процесса проектирования на основе применения квалиметрии, методов оценки проектов и теории принятия решений.

Связь темы диссертации с планом научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках плана научно-

исследовательских работ Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» от 6 февраля 2025 года №2, пункт 1 — «Совершенствование конструкций гидротехнических сооружений, методов расчёта и проектирования, а также разработка основ их надёжной и безопасной эксплуатации на основе цифровых технологий» (2023–2026).

Цель исследования заключается в разработке автоматизированных алгоритмов контроля показателей качества в процессе подготовки проектов гидротехнических сооружений в современных системах проектирования.

Задачи исследования:

анализ и определение основных факторов, влияющих на гидротехнические сооружения;

анализ методов, применяемых в процессе оценки проектов гидротехнических сооружений, и сравнение данных методов между собой;

определение роли графических программ при оценке проектов гидротехнических сооружений и совершенствование метода визуализации в графических программах при оценке проектов;

совершенствование методов оценки и прогнозирования проектов и деятельности гидротехнических сооружений с использованием графоаналитических методов;

реализация предложенной методики посредством языков программирования, внедрение её в производственный и учебный процессы, а также определение её эффективности.

Объект исследования В качестве объекта исследования выбраны процессы оценки проектов и формирования оптимальных проектных решений при проектировании гидротехнических сооружений.

Предмет исследования предметом исследования являются технологии применения методов принятия решений, квалиметрии, методов оценки и прогнозирования, а также алгоритмов и программных комплексов, используемых в процессе разработки проектов гидротехнических сооружений.

Методы исследования в ходе исследования использованы современные методы квалиметрического анализа, математического моделирования и теории принятия решений, методы моделирования проектных процессов, теория цифровой обработки данных, сравнительный анализ полученных результатов, а также технологии программирования, методы оптимизации и теория прогнозирования.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

определены основные факторы, влияющие на гидротехнические сооружения, и обосновано их взаимное влияние друг на друга;

разработана методика сравнения методов Delphi и Парето-оптимальности при оценке проектов гидротехнических сооружений;

на основе норм проектирования гидротехнических сооружений в программе SolidWorks создана 3D-модель плотины и усовершенствован

метод визуализации процесса распределения давления воды, накопленной в водохранилище, на плотину;

на основе анализа показателей годового объёма воды в гидротехнических сооружениях усовершенствован метод прогнозирования объёма воды с использованием регрессионных формул в программах AutoCAD и Excel;

в процессе проектирования гидротехнических сооружений на основе правил квалиметрии, методов оценки проектов и теории принятия решений разработаны алгоритмы и программное обеспечение для автоматизированной оценки проектов.

Практические результаты исследования заключается в следующем:

